

## 1-4-SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISHDA NUTQIY VAZIYATLARDAN FOYDALANISH

Vnera Po‘latova

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 8-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining xususan 1-2 sinf o‘quvchilari o‘rtasida nutqning to‘g‘riligiga, aniqligiga ta‘sir etuvchi omillar, harflarni, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish me‘yorlari va qoidalariga rioya qilish talablari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, nutqni rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha mashq va takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, nutqiy mashqlar

**Abstract.** This article discusses the factors affecting the accuracy and precision of speech among primary school students, especially students in grades 1-2, the requirements for observing the norms and rules for the correct pronunciation of letters and words. Also, exercises and suggestions for the development and improvement of speech were developed.

**Keywords:** primary education, correctness, clarity of speech, speech exercises

Bari nechta?

Chiroyli so‘zlashni, savodli, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini savodli va aniq bayon etishni bilmagan o‘quvchi bilimlarni muvaffaqiyat bilan o‘zashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq va ravon bo‘lsa, fikrlash doirasi idrok qilishi ham teran bo‘ladi. Nutq orqali odamzot o‘zining ichki hissiyotlarini bayon qiladi. Nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda to‘la rivojlangan yoki shakllangan bo‘lavermaydi. Boshlang‘ich sinflardagi o‘quvchilar nutqidagi kamchiliklar o‘qituvchi va logaped yordamida bartaraf etiladi va turli yo‘llar bilan rivojlantirilib boriladi. O‘quvchilar yuqori sinflarga chiqqandan keyin e‘tibor bergan bo‘lsangiz aziz o‘qituvchilar: ayrim o‘quvchilar bilib turgan narsasini ham aytib bera olmay qiyinaladi. Mana shunday holatlarda o‘qituvchi o‘sha o‘quvchini e‘tiborsiz qoldirmasdan sekin yo‘naltiruvchi savollarga tutib, u bilan biron bir mavzuda suhbat qurishga harakat qilishi kerak. Darsingizning ozgina qismini dialog shaklida didaktik tarbiya berishga sarflang.

Og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratilgan har bir mashqda o‘quvchilar grammatik mavzularni ham o‘zlashtirib borishlari maqsadga muvofiq. Shu majburiyatlarni hisobga olgan holda ushbu maqolada nutqiy kompetensiya sekin rivojlangan o‘quvchilar uchun bir nechta sodda ammo natijali mashqlar tavsiya etiladi. Mashqni bajaring!

She‘rni ifodali o‘qing. Sh tovushini to‘g‘ri talaffuz qiling.

**Qani toping-chi!**

Hil-hil pishib, Berdi beshta,  
Oq shaftoli, Yedi kecha.

Shoxda turar, Usmon to'rtta,  
Toq shaftoli. Qani, toping,  
Oyim menga, Bari nechta?

Tolib Yo'ldosh

**Mashq.** So'zlardagi birinchi tovushni "Sh" tovushiga aylantiring va yangi so'zlarni nomlang.

Misol uchun quyida bir so'z ko'rsatilgan.

Soli - sholi

Sarpa-

Soda -...

Sol - ...

So'ri -...

Sim -

**Mashq.** Quyidagi maqollarni o'qing. Nuqtalar o'rniga mos keladigan kelishik qo'shimchalarini qo'ying.

Ot safar... (-ga, -da) bilinar.

Yaxshi... (-ga, -dan) vafo- yomon...-da, -dan) jafu.

Ko'rmagan..(-ning, -ni) ko'rgani qursin.

Tilimizda asosiy birliklardan biri so'z bo'lganligi tufayli uning:

- ma'nosini;

- ishlatilish o'rnini;

- qo'llanilish doirasini;

- qo'llanilish darajasini bilishimiz muhimdir.

Ushbu mashq orqali o'quvchida ma'lum bir kelishik qo'shimchalarini ishlatilish o'rnini aniqlash malakasi shakllanadi. Bu orqali o'quvchida lingvistik va nutqiy kompetensiya birgalikda rivojlanadi. Bosh maqsadimiz –ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat ekan, buning asosiy vositalaridan bo'lgan ona tili ta'limi masalasiga an'anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko'z bilan qarashimiz, o'qitishimiz lozim.

Og'zaki nutq jarayonida ko'pgina o'quvchilarda kelishik qo'shimchalari bilan bog'liq xatoliklarni kuzatdik. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida yuqoridagi mashqni bajartirdik. Ishlab chiqilgan mashqlarda hududiy jihatlarni e'tiborga olish zarur. Negaki Qashgariy viloyatida og'zaki nutqda kelishik qo'shimchalari qo'llash bilan bog'liq xatoliklar tez-tez uchraydi. Ona tili ta'limida og'zaki nutqni o'qitish boshqa mavzularga nisbatan hayotiylik muhimligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunga qadar og'zaki nutqni o'stirish e'tibordan chetda qolayotgan masala edi. Yangilangan darsliklarda esa nutq o'tirishga doir har bir mashq murakkablashtirilgan tarzda berilgan. Til qanchalik zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qiladi. Uning kuch qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati, kamoning qudratiga ham bog'liq. Buyuk bobomiz A.Navoiy so'zga shunday baho berganlar.

“So‘zdirki, nishon berur o‘likka jondin,

So‘zdirki, berur jonga xabar jonondin.

Insonki so‘z ayladi judo hayvondin,

Balki, guhari sharifroq yo‘q ondin”. Qadimgi sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri "Qobusnoma"da ham til va nutqqa alohida e‘tibor berilganki, ular hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘ramiz. Kaykovus barcha hunarlar ichida so‘z hunari - notiqlikni a‘lo deb biladi: "Bilingki hamma hunardan so‘z hunari yaxshi". Shuning uchun ham kishi suxandon va notiq bo‘lishni ta‘kidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo‘lini tinimsiz mehnat va o‘rganish deb uqtiradi. O‘quvchilar tilida kam qo‘llanadigan so‘zlar ma‘nosi ustida ishlash ularning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Adabiy tilga oid ba‘zi so‘zlar o‘quvchilar nutqida kam qo‘llanadi. Bu so‘zning ma‘nosini o‘quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o‘rnida oddiy so‘zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so‘zlarni qo‘llaydi. O‘qituvchi ularni kitobiy so‘zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo‘llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, jim - tinch - osuda- osoyishta, yurakdan - dildan, soat strelkasi -soat millari, garmdori - qalampir. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, ya‘ni nutq va xulq egasi bo‘lish kabi ma‘naviy axloqiy sifatlarni, so‘zlash odobini egallashni shakllantiradi. O‘quvchilar nutqini rivojlantirish ko‘p jihatdan quyidagi narsalarning to‘g‘ri hal etilishiga bog‘liq: nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar (o‘qituvchi va ota-onalarning ma‘lum maqsadga qaratilgan nutqi, o‘quvchilarga eshittiriladigan audio materiallar, qo‘shiqlar, hikoyalar); ta‘limning didaktik materiallarini o‘zlashtirish uchun foydalaniladigan metod va usullari: o‘quv materialining mazmuni, uni o‘rganishning ayrim usullari hamda ularga tegishli tamoyillarga tayanib, o‘qituvchi nutq o‘stirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni rejalashtirmog‘i zarur.

Biz ayni muammoga oid tadqiqot ishlari olib borish jarayonida nutq o‘stirish borasida quyidagi didaktik tamoyillarga tayanib ish ko‘rish yaxshi natija beradi degan xulosaga keldik. Buning uchun o‘quvchilarda muayyan hissiyotni rivojlantiradigandidaktik materiallarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Ona tiliga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish tamoyili (bu o‘rinda bolalarga, xususan, nutqda ona tili faktlarini qo‘llash an‘anasini o‘zlashtirish bo‘yicha ta‘limni tashkil etish nazarda tutiladi. Muayyan mavzuga oid yozma nutqni og‘zaki nutq bilan qiyoslash nutqning asta-sekin boyib borishiga sabab bo‘ladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'lamova. M.G. Do'stxo'jayeva N. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda bayonning ahamiyati. Ta'lim bo'ginlarida ona tili oqitish mazmunini yangilash asoslari. - Toshkent: 26-27 b.
2. Baqaxonova SH. Soz yasalishi darslarini o'tishda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish. Ta'lim jaray onida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. -Toshkent: O'qituvchi. - 46 b.
3. Begmatova X. Hadislar, hikmatli sozlar va o'yinlar orqali nutq o'stirish. Talim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. Toshkent: O'qituvchi,1995.- 46 b.
4. Babayeva. D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. - 432 b.